



*hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

*maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
—umumiy o'rta ta'lim maktabi
geografiya fani o'qituvchisi*

*ning
20__-20__-o'quv yili 5-sinflar uchun
“Xristofor Kolumb”*

TO'GARAK HUJJATLARI

To‘garak a‘zolari haqida ma’lumot

№	Familiya ismi va sharifi	Tug‘ilgan sanasi	Sinfি	Manzili (to‘liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona _____

66

_”To ‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

To 'garak rahbari_

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan “Yosh geografik” to‘garagining
ISH REJASI**

№	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Geografiya nimani o‘rganadi?			
2.	Qadim zamonlarda odamlar yerni qanday tasavvur qilishgan?			
3.	Yer yuzini kashf etishi va o‘rganilishi			
4.	Quyosh, Oy va yulduzlar			
5.	Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi va kattaligi			
6.	Yerning Quyosh atrofida aylanaishi			
7.	Yo‘nalish azimuti va masofani o‘lchash			
8.	Masshtab			
9.	Joining topografik planini tuzish			
10.	Joining topografik planidan foydalanish			
11.	Geografik xarita			
12.	Yerning qobiqli tuzilganligi			
13.	Litosfera			
14.	Yer po‘stining harakatlari			
15.	Yer tosh qobig‘ining asosiy boyliklari			
16.	Gidrosferaning tarkibiy qismlari			
17.	Dunyo okeani			
18.	Okean suvining xususiyatlari			
19.	Yer osti suvlari			
20.	Daryolar. Ko‘llar va muzliklar			
21.	Atmosferaning tuzilishi			
22.	Havo harorati va bosimi			
23.	Shamollar va havo massalari			
24.	Havoning namligi va yog‘inlar			
25.	Ob – havo va iqlim			
26.	Yerning havo qobig‘i			
27.	Yer qobiqlarining o‘zaro ta’siri			
28.	Organizmlarning yer qobiqlariga ta’siri			
29.	Geografik qobiq va tabiat komplekslari			
30.	O‘zingiz yashaydigan joy			
31.	Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida nimalar o‘rganiladi			
32.	Geografik xaritalar va ularning turlari. Atlaslar, globuslar			
33.	Geografik qobiq. Geografik qobiqning chegaralari va xususiyatlari			
34.	Geografik qobiqning rivojlanish qonuniyatları			

Mavzu: Geografiya nimani o‘rganadi?

Mashg‘ulotning blok sxemasi:

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarga geografiya fani haqida ma’lumot berish, ularga geografiyani tabiatshunoslik fani davomi ekanini singdirish. Geografiya faniga qiziqishini ortirish.

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarga ekologik tarbiya berish, Vatanimizga mehr-muhabbat hislarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, nutq madaniyatini o‘stirish, o‘z-o‘zini boshqarishga yo‘naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.

Mashg‘ulot turi: Ta’lim beruvchi, interfaol.

Mashg‘ulot o‘tish metodi: Aqliy hujum, aralash, interfaol.

Mashg‘ulot jihози: Globus, dunyo tabiiy kartasi, 5-sinf mashg‘ulotligi, atlasi, yozuvsiz xaritasi, jadvallar, tarqatma materiallar,

Texnik jixozlar: Kompyuter, multimedia, slaydlar, magnitofon.

I. Tashkiliy qism. 1.O‘qituvchining kirish so‘zi. Davomatni aniqlash. O‘quvchilarni mashg‘ulotga hozirlash

II. O‘tgan mavzuni so‘rab baholash. 3.Biz bilgan bilimlar. “Kim chaqqon” o‘yini. (5 daqiqa)

III. Yangi mavzu bayoni.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Geografiya juda qadimgi fan. Qadimgi yunon olimi Eratosfen kitob yozib, uni geografiya deb atagan. Yunoncha «geo»-Yer, «grafo»-yozaman degan ma’noni bildiradi. Binobarin, «Geografiya» «Yerni tasvirlab yozaman», «Yerning tasviri» degan ma’nolarni anglatadi. Geografiya Yer yuzining tabiatini, aholisi va uning xo‘jaligini o‘rganadigan fandir. Geograflyani o‘rganadigan kishilarni geograflar deb ataymiz.

Uzoq vaqtgacha geograflar Yer yuzasi tabiatini, aholisini va ayrim mamlakatlarning xo‘jaligini tasvirlab yozish bilan shug‘ullanib kelishdi. Geograf-sayyoohlar yangi yerlarni, dengiz va okeanlarni kashf qilishdi. Biroq Yer yuzini tasvirlash, kattaligini aniqlash, xaritasini tuzish uchun bir necha ming yillar kerak bo‘ldi. Geografiya fani rivojlanib borgan sari unda ikkita asosiy yo‘nalish: tabiiy geografiya va iqnisodiy geografiya vujudga keldi. Siz, aziz o‘quvchilar, tabiiy geografiyaning eng sodda bo‘limi - «Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi»ni o‘rganasiz.

Tabiiy geografiyanı o‘rganishning ahamiyati .

Tabiiy geografiya Yer yuzi tabiatining holati, uning o‘zgarishi, ro‘y beradigan tabiiy hodisalarini, tabiatdan foydalanganda nimalarga e’tibor berish zarurligini o‘rganadi. Shuning uchun Siz aziz o‘quvchilar, tabiiy geografiyanı boshdanoq puxta o‘rganishga harakat qiling.

Inson yashashi uchun zarur bo‘lgan hamma narsani - havo va suvni, oziq-ovqat va foydali qazilmalarni tabiatdan oladi. U uy-joylar quradi, konlarni ochadi, zavodlar, shaharlar bunyod etadi, g‘alla, paxta va boshqa ekinlar ekadi, chorva mollarini boqadi. Tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, uni avaylab asrash uchun esa, albatta, geografiya fanini juda yaxshi bilih zarur.

Tabiiy geografiya Yer yuzi yoki uning biror joyi tabiatiga ta’rif berish bilan chegaralanmaydi. Tabiiy geografiya joy tabiatining nima uchun xilma-xil ekanligi sabablarini tushuntiradi. Masalan, cho‘l zonalarida yog‘ingarchilikning kam, tog‘lik hududlarda esa aksinchalik ko‘p bo‘lishini; tog‘lar ustida jazirama yozda ham qorlar erimay yotishini; ekvatorda qishin-yozin iqlim bir xil - issiq bo‘lishiyu mo‘tadil mintaqada esa to‘rtta fasl aniq almashinib turishini tushuntirib beradi.

8. “Aplikatsiya” usuli. (7 daqiqa)

V. O‘quvchilarni baholash va uyga vazifa. Mavzuni o‘qish , xarita bilan ishslash



Sana: “ ” 20 -yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Qadim zamonlarda odamlar yerni qanday tasavvur qilishgan?

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarga Yer haqidagi bilimlarning rivojlanishi, dunyo olimlari va vatandoshlarimizning Yer haqidagi fikrlarini tushuntirib berish

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarga ekologik tarbiya berish, Vatanimizga mehr-muhabbat hislarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, nutq madaniyatini o‘stirish, o‘z-o‘zini boshqarishga yo‘naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.

Mashg‘ulot turi: Ta’lim beruvchi, interfaol.

Mashg‘ulot o‘tish metodi: Aqliy hujum, aralash, interfaol.

Mashg‘ulot jahozi: Globus, dunyo tabiiy kartasi, 5-sinf mashg‘ulotligi, atlasi, yozuvsiz xaritasi, jadvallar, tarqatma materiallar,

Texnik jixozlar: Kompyuter, multimedia, slaydlar, magnitofon.

I. Tashkiliy qism. 1.O‘qituvchining kirish so‘zi. Davomatni aniqlash. O‘quvchilarni mashg‘ulotga hozirlash

II. O‘tgan mavzuni so‘rab baholash. 3.O‘tilgan mavzuni so‘rab baholash

III. Yangi mavzu bayoni.

Inson hayoti tabiat bilan bog‘liq bo‘lgani uchun kishilar qadim zamonlardanoq o‘zлari yashagan joy tabiatini yaxshi bilishga harakat qilishgan. Keyinchalik uzoqroq joylarga ham borishgan. Qayiqlar, yelkanli kemalar yasab, ularda dengizlarda suzishgan. Yangi yerlarni ko‘rishgan. Yozish va chizishni o‘rganib olishgandan keyin esa borgan joylari tabiatini, odamlarning yashash tarzini tasvirlab yozishgan. O‘zлari yashaydigan joyning hamda borgan yerlarining eng sodda xarita larini chizishga urinishgan. Shu yo‘l bilan geografik ma‘lumotlar to‘plana borgan. Savdo aloqalarining o‘sishi, harbiy yurishlar, uzoq o‘lkalarga sayohatlar Yer haqidaga bilimlarning ko‘payishiga yordam bergan.

Qadimgi kishilar bundan 7 ming yil ilgari Yerning shaklini chizmada tasvirlashga harakat qilishgan. Lekin Yerning shaklini odamlar turli joyda turlicha tasavvur qilishgan. Dengiz bo‘yida yashaydigan odamlar Yerni nahang baliqlar ko‘tarib turadi, deb o‘ylasalar, cho‘lda yashaydigan kishilar Yerni toshbaqlar ko‘tarib yuradi, deb faraz qilishgan. Yana bir toifa odamlar Yerni fillar ko‘tarib yuradi deb, boshqalari esa ho‘kiz shoxida ko‘tarib turadi, deb fikr yuritishgan.

Yerni sharsimon, yumaloq bo‘lsa kerak, degan tasavvurning yuzaga kelganiga 2400 yilcha vaqt bo‘ldi. Bunga qadimgi kishilarning kuzatishlari dalolat berib turar edi. Masalan, kema qirg‘oqdan uzoqlashib ketayotganida ufqdan pastga tushiishi, kelayotganda esa ufq ortidan ko‘tarilib chiqishi, Oy tutilganda Yerning Oyga tushgan soyasining doira shaklida ko‘rinishi Yerning yumaloq-sharsimon ekanini anglatar edi.

Dunyo xaritasini tuzishga urinishlar

Eramizdan avvalgi III asr da qadimgi yunon olimi Eratosfen Yerning kattaligini ancha aniq o‘lchagan. U dunyoning birinchi xaritasini tuzgan. Uning xaritasida Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika va Osiyoning g‘arbiy qismlari tasvirlangan. Eramizning II asrida bu xaritaga nisbatan ancha mukammalroq xaritani Ptolemey tuzgan. Unda Yevropa va Osiyoning katta qismi hamda Afrikaning shimoli tasvirlangan.

Bizning bobokalon olimlarimizdan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariylar ham geografiyaning rivojiga katta hissa qo‘sishgan va dunyo xaritalarini tuzishgan. VIII asr oxiri - IX asr boshida yashab, ijod qilgan Muhammad al-Xorazmiy Yerning sharsimon ekanligini aytib bergen.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

8. “Aplikatsiya” usuli. (7 daqiqa)

V. O‘quvchilarni baholash va uyga vazifa. Mavzuni o‘qish , xarita bilan ishslash



Sana: " " 20 -yil. Sinflar: ___. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Yer yuzini kashf etishi va o‘rganilishi

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarga qitt`alar va okeanlarning kashf etilishini va geografik tadqiqotlar haqiga tushuncha berish

Tarbiyaviy maqsad:

O‘quvchilarga ekologik tarbiya berish, Vatanimizga mehrmuhabbat hislarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

O‘quvchilarni mustaqil fikrleshga o‘rgatish, nutq madaniyatini o‘stirish, o‘z-o‘zini boshqarishga yo‘naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.

Mashg‘ulot turi: Ta’lim beruvchi, interfaol.



Mashg‘ulot o‘tish metodi: Aqliy hujum, aralash, baxs

Mashg‘ulot jahozi: Globus, dunyo tabiiy kartasi, 5-sinf mashg‘ulotligi, atlasi, yozuvsiz xaritasi, jadvallar, tarqatma materiallar,

Texnik jixozlar: Kompyuter, multimedia, slaydlar, magnitofon.

I. Tashkiliy qism. 1.O‘qituvchining kirish so‘zi. Davomatni aniqlash. O‘quvchilarni mashg‘ulotga hozirlash

II. O‘tgan mavzuni so‘rab baholash. 3.O‘tilgan mavzuni so‘rab baholash

III. Yangi mavzu bayoni.

Materiklar va okeanlarning kashf etilishida jasur dengizchi hamda sayyoohlarning xizmatlari juda katta bo‘lgan.

1492 yilda Xristofor Kolumb boshchiligidagi ekspeditsiya Hindistonga dengiz orqali yo‘l topish maqsadida Ispaniyadan g‘arbga tomon suzib ketadi. U Atlantika okeanini kesib o‘tib, Amerika qirg‘oqlariga yetib bordi. Portugallar taxminan shu vaqtida Afrikani aylanib, Hindistonga borishdi.

Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530 yy) "Boburnoma" kitobida Farg‘ona vodiysi, Afg‘oniston, Hindiston tabiatini haqida ko‘plab muhim ma'lumotlar to‘plangan.

1519-1522 yillarda Fernan Magellan boshchiligidagi ispanlar ekspeditsiyasi kemalarda Dunyoni g‘arbdan sharqqa aylanib chiqdi. Tinch okeanini kesib o‘tti. Natijada Yerning sharsimonligi isbotlandi, Yer yuzining katta qismini suv qoplab yotishi aniqlandi.

1821 yilda rus dengizchi sayyohlari eng uzoqda joylashgan, muzlar bilan qoplanib yotgan Antarktida materigini kashf etishdi.

Nosir Xisrav sayohati (XI asr)

Yer yuzining ko‘p joylari ana shunday jasur sayohatchilar tomonidan kashf qilindi va o‘rganildi. Hozirgi vaqtga kelib Yer yuzida aniqlanmagan, xaritaga tushirilmagan joy qolmagan. Biroq Yer yuzi tabiatining barcha xususiyatlarini, ayrim tabiiy hodisalarini, ularning sabab va oqibatlarini olimlar yetarlichcha tushuntirib bergenlari yo‘q. Shuning uchun geograf olimlar Yer yuzasini, uning tabiatini yanada mukammal o‘rganishni davom ettirishmoqda. Ular quruqlik va okeanlardagi har xil ekspeditsiyalarda qatnashib, muhim kuzatishlar, tajribalar o‘tkazilmoqda. Geograflarning tadqiqotlari natijalaridan xalq xo‘jaligining turli sohalarida keng foydalaniladi, ilgarigi xaritalarga aniqliklar kiritiladi, yangi xaritalar tuziladi.

Hozirgi vaqtida geograflar o‘zlarining tadqiqotlarida hisoblash texnikasidan, kompyuterlardan, kosmik suratlardan samarali foydalanishmoqda. Endilikda Yer yuzasidagi har bir nuqtaning aniq koordinatalarini Yerning sun’iy yo‘ldoshlari yordamida aniqlash mumkin.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: Yangi mavzuni savol –javob qilib mustahkamlash

V. O‘quvchilarni baholash va uyga vazifa. Mavzuni o‘qish , xarita bilan ishslash

Maktab MMIBDO‘ _____

Sana _____

20 ____yil

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi. Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

**Geografiya fanidan 5-sinf o‘quvchilarga
34 soatli to‘garakni to‘liq holda olish uchun
telegramdan yozing.**



Narxi: 20 ming so‘m

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

**To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#
Plastik egasi Nabihev Zokirjon**



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng
yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga
joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**